

MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KLASSTERLASHNING ASOSIY TAMOIYILLARI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI

Movlonova Dilrabo Nomoz qizi

Qarshi davlat universiteti Mustaqil izlanuvchisi

Gmail: dilrabomavlonova2706@gmail.com

Orceed:0009-0005-2443-6890

Annotatsiya. Mazkur tezisda mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda klasterlashning asosiy tamoyillari va ularning amaliy ahamiyati tadqiq etilgan. Klasterlash hududdagi o'zaro bog'liq korxonalar, tadbirkorlik subyektlari, ilmiy-ta'lim muassasalari, infratuzilma tashkilotlari va davlat institutlari faoliyatini integratsiyalash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim mexanizmi sifatida baholangan. Tadqiqotda hududiy yaqinlik, ixtisoslashuv, kooperatsiya, raqobat, innovatsionlik, integratsiya va resurslardan samarali foydalanish klasterlashning asosiy tamoyillari sifatida tizimlashtirilgan. Ushbu tamoyillarning amaliy qo'llanilishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish, innovatsion faoliyatni faollashtirish va yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarini kengaytirishi asoslangan. Shuningdek, klasterlashning hududiy iqtisodiy ixtisoslashuv va mavjud resurs salohiyatiga mos ravishda tashkil etilishi uning samaradorligini belgilovchi muhim omil ekanligi ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari mintaqalarda klaster siyosatini shakllantirish va mavjud klasterlarning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha amaliy yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mintaqaviy iqtisodiyot, klasterlash, klaster, hududiy rivojlanish, kooperatsiya, ixtisoslashuv, innovatsiya, raqobatbardoshlik, investitsiya, barqaror rivojlanish.

Abstract. This thesis examines the key principles of clustering in regional economic development and their practical significance. Clustering is considered an important mechanism for improving economic efficiency through the integration of interconnected enterprises, business entities, research and educational institutions, infrastructure organizations, and public institutions within a region. The study systematizes geographical proximity, specialization, cooperation, competition, innovation, integration, and efficient resource utilization as the fundamental principles of clustering. It substantiates that the practical application of these principles can contribute to reducing production costs, increasing labor productivity, attracting investment, stimulating innovation, and creating new employment opportunities. Particular attention is paid to the importance of developing clusters in accordance with the economic specialization, resource potential, infrastructure capacity, and competitive advantages of individual regions. The study demonstrates that effective

interaction among cluster participants creates favorable conditions for the formation of local value chains, strengthening regional competitiveness, and increasing the sustainability of economic development. The findings provide practical approaches for improving cluster policy, strengthening cooperation among business and research institutions, and enhancing the competitive potential of regional clusters.

Keywords: regional economy, clustering, cluster, regional development, cooperation, specialization, innovation, competitiveness, investment, sustainable development.

Аннотация. В тезисе исследуются основные принципы кластеризации в региональном экономическом развитии и их практическое значение. Кластеризация рассматривается как важный механизм повышения экономической эффективности посредством интеграции взаимосвязанных предприятий, субъектов предпринимательства, научно-образовательных учреждений, инфраструктурных организаций и государственных институтов в рамках определенной территории. В исследовании систематизированы такие основные принципы кластеризации, как территориальная близость, специализация, кооперация, конкуренция, инновационность, интеграция и эффективное использование ресурсов. Обосновано, что практическое применение данных принципов способствует снижению производственных затрат, повышению производительности труда, привлечению инвестиций, активизации инновационной деятельности и созданию новых рабочих мест. Особое внимание уделено необходимости формирования кластеров с учетом экономической специализации региона, его ресурсного потенциала, инфраструктурных возможностей и конкурентных преимуществ. Показано, что эффективное взаимодействие участников кластера создает условия для формирования локальных цепочек создания стоимости, повышения конкурентоспособности регионов и обеспечения устойчивости экономического развития. Полученные результаты могут быть использованы при совершенствовании региональной кластерной политики и развитии кооперационных связей между субъектами бизнеса, науки и образования.

Ключевые слова: региональная экономика, кластеризация, кластер, региональное развитие, кооперация, специализация, инновации, конкурентоспособность, инвестиции, устойчивое развитие.

Kirish. Bugungi kunda mintaqalar iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlashda hududlarning mavjud iqtisodiy, ishlab chiqarish, mehnat va innovatsion salohiyatidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv, texnologik o'zgarishlar va xalqaro raqobatning kuchayishi sharoitida alohida korxonalar faoliyatining o'zi hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun

yetarli bo'lmay, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi kooperatsion aloqalarni rivojlantirish, ishlab chiqarish zanjirlarini integratsiyalash va innovatsion hamkorlikni kuchaytirishni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, klasterlash mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishning zamonaviy va samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Klasterlashning asosiy xususiyati bir hududda faoliyat yurituvchi o'zaro bog'liq korxonalar, kichik biznes subyektlari, yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari hamda davlat institutlari o'rtasidagi tizimli hamkorlikni shakllantirishdan iborat. Bunday integratsiya natijasida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, texnologiyalar va bilimlarning tezroq tarqalishi, yangi mahsulotlarni yaratish hamda hududning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish imkoniyati yuzaga keladi. Mintaqaviy rivojlanish nuqtayi nazaridan klasterlashning ahamiyati, avvalo, hududlarning o'ziga xos iqtisodiy ixtisoslashuvini aniqlash va mavjud ustunliklarni yagona iqtisodiy tizimga birlashtirish bilan belgilanadi. Tabiiy resurslar, mehnat salohiyati, ishlab chiqarish infratuzilmasi, transport-logistika imkoniyatlari, ilmiy-texnik salohiyat va bozor sig'imi kabi omillar hududlarda turli xil klasterlarni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli barcha hududlar uchun yagona klasterlash modeli emas, balki mintaqaning iqtisodiy xususiyatlari va raqobat ustunliklaridan kelib chiqadigan differensial yondashuv zarur. Klasterlashning amaliy samaradorligi uning muayyan tamoyillar asosida tashkil etilishiga bog'liq. Xususan, hududiy yaqinlik, iqtisodiy ixtisoslashuv, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, sog'lom raqobat, innovatsionlik, institutsional integratsiya va resurslardan samarali foydalanish klasterlashning asosiy tamoyillarini tashkil etadi. Ushbu tamoyillarning o'zaro uyg'unligi korxonalar o'rtasidagi qiymat yaratish zanjirlarini mustahkamlash, investitsion faollikni oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy iqtisodiyotda klasterlarning innovatsion funksiyasi tobora kuchayib bormoqda. Ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalarining ishlab chiqarish subyektlari bilan hamkorligi yangi texnologiyalarni joriy etish, malakali kadrlar tayyorlash va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada klasterlash nafaqat mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish, balki mintaqaning yangi raqobat ustunliklarini shakllantirish vositasiga aylanadi. Shu bilan birga, klasterlash jarayonining samaradorligi davlatning institutsional va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashiga ham bevosita bog'liq. Davlat tomonidan qulay biznes muhiti yaratish, zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish, investitsiyalarni rag'batlantirish, ilm-fan va biznes hamkorligini qo'llab-quvvatlash hamda moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish klasterlarning barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Shundan kelib chiqib, mazkur tezisning asosiy maqsadi mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda klasterlashning asosiy tamoyillarini tizimlashtirish va ularning amaliy ahamiyatini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish

uchun klasterlashning iqtisodiy mazmuni tadqiq etiladi, uning asosiy tamoyillari aniqlanadi, mintaqa iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir mexanizmlari baholanadi hamda klasterlash samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari asoslanadi. Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda klasterlash mintaqaviy iqtisodiy siyosatning alohida yo'nalishi emas, balki ishlab chiqarish, innovatsiya, investitsiya, bandlik va hududiy raqobatbardoshlikni o'zaro bog'lovchi kompleks mexanizm sifatida qaraladi. Natijalar mintaqalarda klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda, hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda hamda biznes, davlat va ilmiy-ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishda foydalanilishi mumkin.

Asosiy qism. Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida klasterlash mexanizmlaridan foydalanish hududning mavjud resurs va ishlab chiqarish salohiyatini yagona iqtisodiy tizimga birlashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi kooperatsion aloqalarni kuchaytirish hamda raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Klaster yondashuvi doirasida korxonalar o'rtasidagi gorizontaal va vertikal aloqalar bilan bir qatorda davlat, ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari hamda infratuzilma tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik ham shakllanadi. Natijada hududda ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi chuqurlashib, mahalliy qiymat zanjirlarining rivojlanishi uchun sharoit yaratiladi. Klasterlashning mintaqaviy iqtisodiyotdagi amaliy ahamiyati, eng avvalo, hududiy yaqinlik va ixtisoslashuv tamoyillari bilan belgilanadi. Hududiy yaqinlik ishlab chiqaruvchilar, xomashyo yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchi subyektlar va iste'molchilar o'rtasidagi iqtisodiy masofani qisqartiradi. Bu esa logistika, axborot almashinuvi va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi. Ixtisoslashuv esa hududning tabiiy, mehnat va ishlab chiqarish resurslarini eng yuqori iqtisodiy samara beruvchi yo'nalishlarga yo'naltirish imkonini yaratadi.

Jadval 1

Mintaqaviy klasterlashning asosiy tamoyillari va ularning amaliy ahamiyati¹

№	Asosiy tamoyil	Mazmuni	Amaliy ahamiyati
1	Hududiy yaqinlik	O'zaro bog'liq subyektlarning bir hududda joylashuvi	Logistika va tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi
2	Ixtisoslashuv	Hududning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish	Resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi
3	Kooperatsiya	Korxonalar o'rtasidagi ishlab chiqarish aloqalarini kuchaytirish	Mahalliy qiymat zanjirlarini shakllantiradi
4	Raqobat	Klaster ishtirokchilari o'rtasida sog'lom raqobatni ta'minlash	Mahsulot sifati va samaradorlikni oshiradi

¹ Muallif ishlanmasi.

5	Innovatsionlik	Yangi texnologiya va ilmiy ishlanmalarni joriy etish	Mehnat unumdorligi va raqobatbardoshlikni oshiradi
6	Integratsiya	Biznes, davlat, fan va ta'lim hamkorligi	Innovatsion va institutsional muhitni yaxshilaydi
7	Resurs samaradorligi	Moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan kompleks foydalanish	Ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtiradi
8	Barqarorlik	Iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarni uyg'unlashtirish	Uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlaydi

1-jadvaldan ko'rinadiki, klasterlash tamoyillari bir-biridan alohida holda emas, balki o'zaro bog'liq tizim sifatida amal qiladi. Masalan, hududiy ixtisoslashuv mavjud bo'lmagan sharoitda klasterlashning ishlab chiqarish samaradorligi pasayishi mumkin. Xuddi shuningdek, kooperatsiya mavjud bo'lsa-da, innovatsion va institutsional qo'llab-quvvatlash yetarli bo'lmasa, klasterning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlash qiyinlashadi. Klasterlashning eng muhim natijalaridan biri ishlab chiqarish kooperatsiyasining chuqurlashuvi hisoblanadi. Korxonalar o'rtasida xomashyo, yarim tayyor mahsulot, texnologiya, xizmat va axborot almashinuvi yo'lga qo'yilganda hududiy qiymat yaratish zanjiri shakllanadi. Bunday zanjirda yirik korxonalar yakuniy mahsulot ishlab chiqaruvchi sifatida, kichik va o'rta biznes subyektlari esa yetkazib beruvchi yoki ixtisoslashgan xizmat ko'rsatuvchi sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Shu jihatdan klasterlashning "yirik korxona – kichik biznes – ilmiy muassasa – infratuzilma – davlat" modeli mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish uchun muhim tashkiliy asos bo'lib xizmat qiladi. Klasterlashning yana bir muhim tamoyili innovatsionlik hisoblanadi. An'anaviy ishlab chiqarish tizimidan farqli ravishda klaster modeli bilim, texnologiya va tajribaning ishtirokchilar o'rtasida tez tarqalishiga imkon yaratadi. Ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari bilan biznes subyektlari o'rtasidagi hamkorlik natijasida ishlab chiqarishning texnologik darajasi oshadi. Shu bilan birga, malakali kadrlar tayyorlash va ularni hududiy iqtisodiyotga jalb qilish imkoniyatlari kengayadi. Raqobat va kooperatsiyaning uyg'unligi ham klasterlashning muhim xususiyatidir. Bir tomondan, klaster tarkibidagi korxonalar bozorda raqobatlashadi, ikkinchi tomondan esa umumiy infratuzilma, ilmiy bilim, kadrlar va yetkazib berish tizimlaridan birgalikda foydalanadi. Natijada raqobat mahsulot sifatini oshirishga, kooperatsiya esa xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, klasterlashning amaliy samaradorligi hududning real iqtisodiy imkoniyatlariga moslashtirilgan taqdirdagina yuqori bo'ladi. Shu sababli mintaqalarda klasterlarni shakllantirishdan oldin hududning resurs, ishlab chiqarish, mehnat, investitsiya, innovatsiya va infratuzilma salohiyatini kompleks baholash zarur. Bundan tashqari, klasterlarni boshqarishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Klaster ishtirokchilari o'rtasida manfaatlarni muvofiqlashtiruvchi maxsus boshqaruv mexanizmining mavjudligi loyihalarni amalga

oshirish tezligini oshiradi. Bunda davlatning vazifasi klaster ishtirokchilarining bevosita xo'jalik faoliyatini boshqarish emas, balki qulay institutsional muhit, infratuzilma va rag'batlantirish mexanizmlarini yaratishdan iborat bo'lishi kerak. Shunday qilib, klasterlashning asosiy tamoyillari o'zaro bog'langan holda amalga oshirilganda mintaqa iqtisodiyotida multiplikativ samara yuzaga keladi. Kooperatsiya ishlab chiqarish samaradorligini oshirsa, innovatsiya texnologik rivojlanishni tezlashtiradi, investitsiya yangi quvvatlarni shakllantiradi, bandlikning oshishi esa ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Shu bois klasterlashni mintaqaviy iqtisodiy siyosatning alohida elementi emas, balki iqtisodiy o'sish, innovatsion rivojlanish, investitsion faollik va ijtimoiy farovonlikni yagona tizimda birlashtiruvchi kompleks mexanizm sifatida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Tadqiqot natijalari mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda klasterlash mexanizmlaridan samarali foydalanish hududlarning mavjud iqtisodiy, ishlab chiqarish, mehnat va innovatsion salohiyatini birlashtirishning muhim yo'nalishi ekanligini ko'rsatdi. Klasterlash alohida korxonalar faoliyatini rivojlantirish bilan cheklanmasdan, biznes subyektlari, ilmiy-ta'lim muassasalari, davlat va infratuzilma tashkilotlari o'rtasidagi barqaror kooperatsion aloqalarni shakllantirish orqali hududiy iqtisodiy tizimning samaradorligini oshiradi. Tahlil asosida hududiy yaqinlik, ixtisoslashuv, kooperatsiya, raqobat, innovatsionlik, integratsiya, resurslardan samarali foydalanish va barqarorlik klasterlashning asosiy tamoyillari sifatida belgilandi. Ushbu tamoyillarning o'zaro uyg'unligi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, innovatsiyalarni tezroq joriy etish, investitsiyalarni jalb qilish va mahalliy qiymat zanjirlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Tadqiqot natijalari klasterlashning iqtisodiy samarasi, avvalo, korxonalar o'rtasidagi kooperatsiya darajasi va ularning ilmiy-ta'lim hamda institutsional muhit bilan integratsiyasiga bog'liqligini ko'rsatdi. Shu sababli klasterlarni shakllantirishda faqat korxonalar sonini ko'paytirish emas, balki ular o'rtasidagi real iqtisodiy aloqalar, qo'shilgan qiymat yaratish darajasi, innovatsion faollik va eksport salohiyatini oshirishga ustuvor ahamiyat berish lozim. Shuningdek, klasterlash samaradorligini baholashda iqtisodiy, investitsion, innovatsion, ijtimoiy va institutsional ko'rsatkichlarni birlashtiruvchi integral baholash yondashuvi taklif etildi. Ushbu yondashuv mintaqalarning klasterlash darajasini aniqlash, mavjud muammolarni aniqlash va hududlar uchun differensial rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Umuman olganda, klasterlashni "hududiy salohiyat – ixtisoslashuv – kooperatsiya – innovatsiya – investitsiya – ishlab chiqarish – bandlik – barqaror iqtisodiy rivojlanish" uzviy zanjiri asosida tashkil etish mintaqalar raqobatbardoshligini oshirishning samarali yo'li hisoblanadi. Shu asosda klaster siyosatini hududlarning o'ziga xos iqtisodiy imkoniyatlariga moslashtirish, biznes va ilm-fan integratsiyasini kuchaytirish, kichik biznesni qiymat zanjirlariga keng jalb

qilish hamda zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish mintaqaviy iqtisodiyotning uzoq muddatli va barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Porter M.E. Clusters and the New Economics of Competition // Harvard Business Review. – 1998. – Vol. 76, No. 6. – P. 77–90.
2. Ketels C., Lindqvist G., Sölvell Ö. Strengthening Clusters and Competitiveness in Europe. – Stockholm: The Cluster Observatory, 2012. – 80 p.
3. Delgado M., Porter M.E., Stern S. Clusters, Convergence, and Economic Performance // Research Policy. – 2014. – Vol. 43, No. 10. – P. 1785–1799.
4. Ketels C.H.M. Competitiveness and Clusters: Implications for a New European Growth Strategy // Europe's Growth Challenge. – 2016. – P. 1–20.
5. Delgado M., Porter M.E., Stern S. Defining Clusters of Related Industries // Journal of Economic Geography. – 2016. – Vol. 16, No. 1. – P. 1–38.
6. European Commission. Smart Specialisation and Clusters: Opportunities for Regional Growth and Innovation. – Brussels: European Commission, 2019.
7. OECD. Regional Industrial Transitions to Climate Neutrality. – Paris: OECD Publishing, 2023.
8. OECD. Regional Development Policies in OECD Countries. – Paris: OECD Publishing, 2023.
9. World Bank. Innovation and Entrepreneurship in Regional Development. – Washington, DC: World Bank, 2020.
10. UNIDO. Industrial Development Report 2024: Turning Challenges into Sustainable Solutions. – Vienna: United Nations Industrial Development Organization, 2024.